

**TALABA YOSHLARNI - HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASINI
ARTPEDAGOGIKA VOSITALALARIDA RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKAMIZDAGI MAVJUD MUZEYLAR MISOLIDA
DEVELOPMENT OF YOUNG STUDENTS - MILITARY PATRIOTIC
EDUCATION THROUGH ART-PEDAGOGICAL TOOLS AS AN EXAMPLE
OF EXISTING MUSEUMS IN OUR REPUBLIC
РАЗВИТИЕ МОЛОДЕЖИ - ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОЕ
ВОСПИТАНИЕ ЧЕРЕЗ АРТ-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА КАК
ПРИМЕР СУЩЕСТВУЮЩИХ МУЗЕЕВ В НАШЕЙ РЕСПУБЛИКЕ**

Madaliev Rahmaddin Ismoilovich

FarDU Harbiy ta'lif fakul'teti o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Ozbekistonda mavjud muzeylar ularni tashkil topishida hukumatimiz qarorlari xamda ularni talaba - yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidagi ahamiyati qolaversa muzeylar artpedagogik tarbiyaning bir vositasida sifatida talabalarga talim – tarbiya berish usullari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Moziy, muzey, merosimiz, tarix, madaniya, xalq, davlat, ekspozitsiyalar, ekspozitsiya, eksponat, arxeologiya, qatag'on qurbanlari, harbiy-tarixiy voqealar.*

Annotation: *In this article, the decisions of our government on the establishment of museums in Uzbekistan, as well as their importance in the military-patriotic education of students, are discussed, as well as the methods of educating students as a means of art-pedagogical education.*

Key words: *Museum, museum, our heritage, history, culture, people, state, expositions, exhibits, archeology, victims of repression, military-historical events.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются решения нашего правительства о создании музеев в Узбекистане, а также их значение в военно-патриотическом воспитании студенческой молодежи, а также методы воспитания студенческой молодежи как средства художественного творчества. педагогическое образование.*

Ключевые слова: *Музей, музей, наше наследие, история, культура, народ, государство, экспозиции, экспонаты, археология, жертвы репрессий, военно-исторические события.*

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

Kirish. Tarix – millatning haqiqiy tarbiyachisi. SHu ma'noda bugun buyuk ajdodlarimizning xayrli ishlari va jasoratlari bizning tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirishda axloqiy tarbiya va ibrat manbai bo'lib xizmat qilmoqda, desak yanglishmaymiz.

Ma'lumki, har bir millat, xalq va davlat o'z tarixiga ega. Tarixni bilish zamirida esa buyuk falsafa jamlangan. Xalqning kelajagi porloq bo'lishida, shuningdek, davlat istiqboli yo'lida kuchli siyosat yurgizishda o'tmishdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy, iqtisodiy jarayonlarni chuqur o'rganish va anglash katta ahamiyat kasb etadi.

Demak, millatning shakllanishi, insonlarning ma'naviy yuksalishi, milliy g'oyani mustahkamlash, aholining milliy qadriyatlarga e'tiborli bo'lishlarini tarbiyalashda muzeylarning alohida o'rni bor. Muzeylarni tarix, madaniyat va san'atning xazinasi, deb ta'riflashadi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha jabhalarida bo'lganidek madaniy sohada, shu jumladan, boy o'tmish merosimizni o'rganish, saqlash va uni keng xalq ommasiga targ'ib etish borasida ham tub burilish yasadi. Vatanimiz ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar qatorida O'zbekiston hududidagi muzeylar faoliyatida ham yangi davr boshlandi.

Adabiyotlar taxlili va metodologiyasi. Davlatimizning "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni 1998-yil 12-yanvarda qabul qilinib, u muzey va muzey xodimlarining hayotida katta ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan muzeylar faoliyatini takomillashtirish, ularni xalqning ma'naviy axloqiy kamolotida tutgan o'rnini yanada oshirish maqsadida "O'zbekmuzey" jamg'armasi tuzildi.

Bugungi kunda mamlakatimiz hududidagi turli muassasalar, korxonalar, qurilish tashkilotlari, qishloq, jamoa boshqaruv xo'jaliklari qoshida, shahar, tuman, viloyat markazlarida, xalq ta'limi tizimida ja'mi 1200 dan ortiq muzeylar bo'lib, ularning eng yiriklari poytaxtda joylashgan. Shu bilan birgalikda o'nlab yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar va mashhur san'at arboblarining uy muzeylari ham faoliyat ko'rsatmoqda.

2017-yil 22-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmasida "Qatog'on qurbanlari xotirasi" muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № 936-sonli qaroriga asosan 2018-yil 17-avgust kuni Fargona davlat universiteti raxbaryati universitet qoshida Fargona viloyatida chor istilosi va sobiq sovet tuzimi davrida amalga oshirilgan dahshatli qatog'onlar tarixini hamda shahid ketgan vatandoshlarimizning nomi va xotirasini abadiylashtirish maqsadida "Qatog'on qurbanlari" muzeyi tashkil qilundi.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

Qatag‘on qurbanlari xotirasi muzeyi uchun universitetning 1903-yilda qurilgan bosh binosining 2 - qavatidan 5 ta xona ajratilgan bolib, quyidagi bolimlardan iborat:

- Koridor va 2-zal “Qatag‘on qurbanlari xotirasi” bo‘limi
- 3- zal “Paxta ishi” davriga bo‘limi
- 4-zal “Mustaqillik davri”ga bo‘limlaridan iborat bolib muzeyda 703 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, gazeta-jurnallar hamda 2738 turli xildagi eksponatlar mavjud.

“Qatag‘on qurbanlari” muzeyi Biologiya fanlari nomzodi S.M.Siddiqov boshchiligidagi jonkuyar jamoasi bilan birgalikda, Fargona viloyatidagi milliy-madaniy merosimiz, betakror an'analarimizni qayta tiklash bo‘yicha amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlarni o‘zida chuqur aks ettirgan yangi-yangi arxiv hujjatlar, Fargona davlat universitetining salkam bir asirlik tarixi xamda uning pedagogik jamoasi haqidagi, fakultet va kafedralari haqidagi tarixiy ma’lumotlar, ilmiy sharh va izohlar bilan boyitilib, yangi ekspozitsiya tayyorlandi. Muzeyning “Qatag‘on jarayonining 1940-1950 yillarda davom ettirilishi”, “1980 yillardagi qatag‘onlar: “Paxta ishi” kompaniyasi” mavzularidagi bo‘limlari bilan tanishgan yoshlar qatag‘on to‘lqini nafaqatilm-fan va madaniyat namoyandalari, ijodiy ziyolilarni, davlat arboblarini, balki ko‘plab oddiy insonlarni ham o‘z domiga tortganligi haqida haqqoniy va ayanchli ma’lumotlarni bilib oladilar. Bu esa, talabalarning ongida o‘z xalqiga va yurtiga bo‘lgan muhabbatni yanada kuchaytiradi, bugungi tinch-totuv, ozod turmushni muhofaza qilish uchun bor kuch-g‘ayratlarini safarbar etishga undaydi.

Fargona davlat universiteti qoshida yaratilgan “Qatag‘on qurbanlari xotirasi” muzeyidagi eksponatlar xamda malumotlar talabalarning, qalbi va ongida vatanparvarlik, o‘z xalqiga muhabbat va sadoqat hissini uyg‘otish, ayniqsa, bugungi dorilomon kunlar qadriga etish, ularni milliyo‘zlikni anglashga, o‘z tarixidan faxrlanish tuyg‘usini uyg‘otishga katta xizmat qilmoqda.

Yurtimizda yangi-yangi muzeylarning tashkil etilishi, poytaxtdagi eng yirik va nufuzli Temuriylar davri tarixi, qatag‘on qurbanlari xotirasi, mamlakatimiz janubida joylashgan Termiz shahridagi Arxeologiya muzeyining ochilishi hukumatimiz tomonidan muzey va muzeyshunoslik sohasida nihoyatda katta ishlarning amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Yangi muzeylarning tashkil etilishi bilan bir qatorda shu vaqtgacha ham faoliyat ko‘rsatib turgan barcha katta-kichik muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash, milliy istiqlol ruhida qayta tashkil etish masalasiga ham alohida e’tibor bilan qaralmoqda.

Jumladan, Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 11-dekabrdagi 2017-2027-yillarda Davlat myzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy texnik bazasini

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'grisida 975-sон qarori.

Prizidentimizning tashabbusi bilan Buyuk g'alabaning 75 yilligiga bag'ishlanib qurilgan. G'alaba bog'ida "Shon-sharaf" muzeyi, "Mangu jasorat", "Matonat madxiyasi" monumentlari bunyod etildi.

Bu obida xalqimizni qonli janglardagi mardligini front ortidagi mashaqqatli mexnati va fidoyiliginи aks ettirishga bag'ishlangan keng ko'lamlı tarixiy-badiy ekspozitsiyadir.

Bu erda namoyish etilayotgan minglab tarixiy eksponatlar buyuk G'alabaga hissa qo'shgan xalqimizning mislsiz jasoratini tarannum etishga, yosh avlodimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek olijanob maqsadga xizmat qilmoqda. (4)

Yana bir quvonarlisi 2023 yilning 22-dekabr kuni Prezident SHavkat Mirzieyovning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisdagi nutqida xam Muzeylar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha etti yillik dastur qabul qilinib quyidagi ishlar amalga oshirilishi yuzasidan rejalar bayon qildilar:

Eksponatlar saqlash va muhofaza qilish bo'yicha barcha muzeylar zamonaviy uskunalar bilan jihozlanadi va eng noyob eksponatlar markirovka qilinadi.

Innavatsion texnologiyalar asosida Tarix muzeyi hamda San'at muzeyining zamonaviy yangi binolari barpo etiladi. Temuriylar tarixi xamda tabiat muzeylarining ekspozitsiyasi yangilanadi. Alisher Navoiy nomidagi muzeyi kapital ta'mirlanadi.

Islom sivilizatsiyasi markazida Birinchi va Ikkinci Renessans, davlatichilik tarixi va buyuk allomalar faoliyati bo'yicha yangi ekspozitsiyalar tashkil qilinadi.

Muqaddas kitob –Usmon Qur'oni sahifalarini ham konservatsiya va restavratsiya qilinadi.

"Yurtimizning ko'hna tarixiga bag'ishlangan 18 ta arxeologik yodgorligi ni ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantiriladi. SHuningdek Samarqandda Sohibqiron Amur Temur bog'larini qayta tiklanadi, "Buyuk Ipak yo'li" muzeyini barpo etiladi. Bibixonim majmuasi to'liq restavratsiya qilinadi"- deb takidlab o'tdilar.

Muxokama natijalari. Bugungi kunda biz, ya'ni yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullannayotgan barcha jabxa vakillari, Prezidentimizning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqini tinglar ekanmiz, buni yanada teranroq his qilgan holda ko'rsatilgan maqsad va asosiy vazifalaridan kelib chiqib, yyoshlarni millatimiz qadriyatlariga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas'uliyat hamda javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishimiz zarurdir. Buning uchun o'sib kelayotgan yosh avlodni mana'viyat suvidan sug'orilgan tarbiya bilan, pedagogik vositalarning

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

zamonaviy vositalaridan unumli foydalangan xolda tarbiyalasak biz qurayotgan yangi jamiyatimiz gullab yashnaydi.

Bunda pedagogik jamoalarining muhim vazifalari davlatimiz tomonidan chiqarilgan qonun va qarorlarga tayangan holda talabalarni yani bo'lgusi oqituvchilarni serqirra, atroflicha ta'sir etuvchi nafosat qadriyatlarga yo'naltirishimiz lozim. Birinchi navbatda milliy qadriyatlar, ona Zamin tabiat, milliy xalq san'ati, sharqning badiiy madaniyati, tarixiga muhabbat tuyg'ularini rivojlantirish. Bu borada asosiy manba sifatida ARTpedagogika vositalari orqali milliy an'analarga boy adabiyot, tasviriy san'at, musiqa, teatr va kino san'atning boshqa turlari bilan tanishtirish ya'ni yurtimizni diqqatga sazovor joylarga ekskursiyalar uyushtirish, o'zbek xalqining o'tmishdagi va zamonaviy turmush tarzi aks etgan milliy spektakllarga va muzeylarga olib borish. Bu esa, talabalarning ongida o'z xalqiga va yurtiga bo'lgan muhabbatni yanada kuchaytiradi, bugungi tinch-totuv, ozod turmushni muhofaza qilish uchun bor kuch-g'ayratlarini safarbar etishga undaydi. Ayniqsa yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan muzeylarda saqlanib, namoyish etilayotgan tarixiy hujjat va xalq madaniyatiga oid ashyolar, yangi avlodga ajdodlari o'tmishi, hayoti, yuksak ma'naviyatidan darak berib, uning vositasida Vatanga bo'lgan muhabbat, ota-bobolari qoldirgan madaniy merosga nisbatan hurmat, e'zoz, ularga munosib vorislар bo'lish tuyg'usini uyg'otadi. Shuningdek, yoshlarni odobu axloqqa, halolligu poklikka, botirlikka, mardlik, vatanni himoya qilish, ajdodlaridek sabr-qanoatli, aqli,adolatli, mehr-muruvvatli bo'lishga chaqiradi.

Xulosa. Bugungi kunda barchamiz Prezidentimiz boshchiligidagi yangi O'zbekistonni qurmoqdamiz. Yangi hayot beqiyos o'zgarishlar hammamizdan fidoyilik va bunyodkorlikni, yanada katta safarbarlikni talab etmoqda. Bu yo'lida biz pedagoglar, murabbiy (tyutor)lar o'zimizning bilmimiz bilan mamlakatimizni tinchligi va osoyishtaligi yo'lida xalqimizning farovonligi uchun xarakat qilmog'imiz, ma'naviyat va marifat suvi bilan sug'orilgan tarbiya vositasida yangi avlod kadrlarini etishtirish, yoshlarni tashabbuskor, bunyodkor, vatanparvarlik kabi g'oyalari bilan kasb-hunarga yo'naltirishimiz zarurdir. Talaba-yoslar bilan ishlashda yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlardan unumli foydalangan holda, mashg'ulotlar xamda mashg'ulotlardan tashqari vaqlarda, ya'ni axborot soati, kitobxonlik kechalarida qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ishonchimiz komilki qaxramon ajdodlarimizning jasoratiga sodiq bo'lgan yoshlarimiz farovon hayotni qadrlab, uni yanada mustaxkamlash yo'lida bor kuch-g'ayratlarini safarbar etadilar.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hududlardagi oliy ta’lim muassasalari tuzilmasida “Qatag“on qurbanlari xotirasi” muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 22-noyabrdagi № 936-sonli qarori.
2. “2023-2027 yillar yoshlar harbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konspensiyasi”. Vazirlar mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi 267-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-dekabr kuniidagi Respublika Manaviyat va marifat kengashining kengaytirilgan majlisdagi nutqi materiallari. “Xalq sozi”- 2023-yil 23-dekabr soni.
4. Madaliev R.“Talaba-yoshlarning xarbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarining ahamiyati” FarDU ilmiy xabarlari 2023 y.№1son 51b.
5. Madaliev R. “Talaba-yoshlarning xarbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositasida rivojlantirish texnologiyasi ” mavzusidagi maqola. “Mirzo Ulugbek nomidagi Ozbekiston milliy universiteti” jurnali 1/8/1, 2023y. 137-139-b.
6. SH.X.Tillavoldiev. “Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari” darslik. Farg‘ona-2023 yil.